

## TALABALARNING BILIMINI BAHOLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li*  
*FarDU magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada insoniyat ongining mahsuli bo'lgan o'lchov birliklari yordamida talabalarning egallagan va egallayotgan bilimlarini baholashda foydalanish to'g'risida, shuningdek, hozirgi texnika asrida ularning afzallik va kamchilik tomonlari bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, oliy ta'lim, baholash, ta'lim-tarbiya, ta'lim sifati, samaradorligi, hemis reyting baholash tizimi, 5 ballik baholash, o'quv yuklama.

**Абстрактный.** В статье представлены мнения об использовании единиц измерения, являющихся продуктом человеческого сознания, при оценке полученных и приобретенных знаний учащихся, а также об их преимуществах и недостатках в современный век технологий.

**Ключевые слова:** образовательная система, высшее образование, оценка, образование, качество образования, эффективность, полурејтинговая система оценки, «5-балльная» оценка, учебная нагрузка.

**Abstract.** The article presents opinions on the use of units of measurement, which are the product of human consciousness, in evaluating the acquired and acquired knowledge of students, as well as on their advantages and disadvantages in the current age of technology.

**Key words:** educational system, higher education, evaluation, education, quality of education, efficiency, hemis rating evaluation system, "5" point evaluation, educational load.

Insonlarning ongi tanasi bilan birgalikda o'sib, rivojlangani sayin turli xil ixtirolar qila boshladilar. Mana shunday ixtirolardan biri o'lchov birliklaridir. Ushbu ixtiro kirib bormagan soha, kasb yoxud hunar bo'lmasa kerak, Ulardan kundalik hayotimizda ham turli xil maqsadlarda foydalanib kelmoqdamiz. Yaqqol dalil sifatida vaqtini, mablag'larni va hozakolarni hisoblashni aytish mumkin.

Zamonlar rivojlagani sayin ta'lim tizimida ham o'lchov birliklariga ehtiyoj paydo bo'ldi. Undan dastlab bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek davridan boshlab foydalanish ommalashgan. Asrlar o'tgani sayin ular takomillashib, rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda esa uning turli xil variantalari rivojlangan davlatlar tomonidan ishlab chiqib tajribadan o'tkazilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekistonning deyarli barcha oily ta'lim muassasalari baholashni tizimida Hemis platformasi orqali amalga oshirmoqda.

Talabalar bilimini baholash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida amalga oshirilgan baholash mezoni haqida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsusta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'ida baholash tizimini haqida tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda baholik va ballik tizimda baholash tizimlar haqida aniq tavsiyalar berilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomdata talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshirish, oraliq nazorat semester davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkazish, oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2-martagacha o'tkazilish, oraliq nazorat turini o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanishu, oraliq nazorat turning topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanishi, semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam bo'lgan fanlar bo'yicha oraliq nazorat turi o'tkazilmasligi, talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab borilishi, talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinishi, yakuniy nazorat turi semestr yakunida (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fan yakunida) tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkazish, yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli tegishli fan bo'yicha kafedra tomonidan belgilanishi, yakuniy nazorat turi oliy ta'lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkazililishi, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlari obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov yoki obyektiv tizimlashtirilgan imtihon shakllarida o'tkazilishi haqida ham tegishli ko'rsatmalar berilgan.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda talabalarga baho olishga emas, aksincha ilm olishga harakat qilingizlar degan fikr ko'p takrorlanayapti. Lekin bu fikr o'sha aytilgan auditoriyada qolib ketmoqda. Chunki, talabani ilm olishga motivatsiya qiladigan tamoyil bu uning bilimiga qo'yilayotgan indikator ball yoki baho bilan o'lchanadi. Agar talabaga kredit-modul tizimi negizida reyting baholash, kredit baholash yoki 5 baholik baholash tizimlari bo'ladimi jarayon to'g'ri in'ikos ettirilsa talaba -yoshlarning ilmga rag'bati aksioma singari haqiqatga aylanib ma'rifatga intilish kundalik turmush tarziga aylanib boraveradi Bugun oliy ta'lim muassasalariga HEMIS axborot tizimi kirib keldi. Talabaning bilimini bu tizim orqali baholash o'quv jarayonining faol

ishtirokchisi bo'lgan professor-o'qituvchiga va talabaga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Chunki tizim soxta harakatni qabul qilmaydi va hammadan tizimli ishlashni talab qiladi. Tizimli ishlash boshqaruvda o'tirgan menejerlarning faoliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki, boshqaruvda o'tirgan menejerlar talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning qaysi birini tanlash va joriy etishga uncha ham e'tibor bermayapti. Bu esa hukumat va vazirlik qabul qilgan huquqiy normalarning hayotga joriy etilishini kechiktirmoqda.

Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab ba'zi oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi asosida kredit-modul tizimini joriy etish boshlandi. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab esa bu tizimni to'liq joriy etishga o'tildi. Kredit-modul tizimini joriy etishdagi eng katta muammolardan biri bu biron bir oliy ta'lim muassasasida alohida bitta fan misolida talabaning o'zlashtirgan va o'zlashtirayotgan bilimini baholashning jadvali va mezonini ishlab chiqilmadi. Faqat kredit-modul tizimining afzalliklari haqida minbarlarda va tavsiya etilayotgan adabiyotlarda umumiy, mavhum va abstract fikrlar aytishdan nariga o'tilmayapti. Amaliyot jarayoni bilan boshqaruvdagi ma'sul shaxslarning deyarli qiziqishi sust yoki pastda, talaba va professor-o'qituvchilar orasida ishlash ko'nikmasi yo'q. Bu tizimni HEMIS axborot tizimi bilan qo'shib olib borish ham talabadan ham professor-o'qituvchidan juda ham ma'suliyat talab qiladi. Chunki, avvalgi reyting tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq normativ huquqiy hujjatlari talablarini tizimli amalga oshirilmasligi talabalarda ham professor-o'qituvchilarda ham loqaydlik dunyoqarashni shakllantirib qo'ydi. Ya'ni, keyin rasmiylashtirsa ham bo'ladi degan dunyoqarash hozir ham saqlanib qolmoqda. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot va tajriba darslari bo'ladimi yoki kurs ishi, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi hamda davlat attestatsiya jarayonlari bo'ladimi barcha ishtirokchilar endi tizimli ishlash jarayoniga o'tishi kerak. Bu esa o'quv jarayoni jadvalidagi nazariy o'qish jarayoni hamda boshqa ishoralariga qat'iy amal qilish bilan birga har bir bosqichda talabaning bilimiga aniq va real baholash kun tartibining birinchi masalasi bo'lib qolishini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022 yil 28-yanvardagi videoselektor yig'ilishida najot maktabda, najot tarbiyada, najot ilmdan degan g'oyasi barcha uchun ezgu maqsadga aylanishi kerak. Chunki, maktab, tarbiya va ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga kadrlarni oliy ta'lim muassasalari tayyorlaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Pedagoglarning dars o'tish mahorati yetarli emas. Ular o'quvchilarga faqatgina o'zi chala bilgan narsalarni o'rgata oladi. 5 degan fikri oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tayyorlagan kadrlarining bilimi noto'g'ri baholanganligini anglatadi. Shuning uchun bilimni baholash va bu indikator samarali ishlash uchun yangi mexanizm kerak. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, iqtisod fanlari doktori, professor A.Toshqulov Kelgusi yillarda

oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy tizimi xalqaro standartlarga muvofiq joriy etiladi va buning natijasida: mamlakat oliy ta'lim tizimi jahon ta'lim makoniga to'liq integratsiya qilinadi; ta'lim dasturlarini xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish imkoniyati kengayadi deb bejizga ta'kidlamadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalar bilimini nazorat qilish semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida olib borilgan islohotlardan baholash tizimida xolisona yondashish lozimigini ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishdagi ma'ruzasidan. 2022 yil 28 yanvar
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari uchun mustaqil ta'limning asosiy tamoyillarini joriy qilishga doir tavsiyalar. Tempus loyihasi, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirish. 1-2 sahifa. 2006 yil
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni Ta'lim to'g'risida. 2020 yil 23 sentabr. O'RQ-637-son
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida . 2020 yil 31-dekabr 824-son
5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018 sonli buyrug'I
6. Toshqulov A. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar: 2021 yil natijalari va istiqboldagi rejalar. Edu.uz December 28, 2021 <https://telegra.ph/Hisobot-12-28.30.12.2021>
7. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – С. 42-47.
8. Egamberdiyev, O., Kholdarova, Z., & Khusanova, M. (2022). THE ORDER OF THE APPEARANCE OF THE PEOPLE'S DIPLOMACY OF THE GREAT SILK ROAD COUNTRIES.
9. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). NEED TO FORM CREATIVE COMPETENCE IN EDUCATORS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 162-165.
10. ugli Egamberdiyev, O. A., ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL

ACTIVITY OF EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 166-169.

11. Ugli Egamberdiyev, O. A., Ugli Maxamadjonov, J. Z., & kizi Sobirova, A. M. (2022). DIFFERENT APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 158-161.

12. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.

13. Oyatillokh Alishero'g'li, E. (2022). Ways and Methods of Formation of Communicative Competence in Future Teachers. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 63-65.

14. Iqboljon O'g'li, T. J., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON. *PEDAGOGS jurnali*, 9(3), 4-7.

15. Alisher o'g'li, E. O. (2022). Issues of Retraining and Professional Development of Pedagogical Personnel. *The Peerian Journal*, 5, 192-194.

16. Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.

17. Alisher o'g'li, E. O., & Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). The Role of Psychology in the Treatment of Heart Failure in Humans. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 500-502.

18. Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. *Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari*, 1(1), 59-60.

19. Alisher o'g'li, Y. O. (2022). IJTIMOIIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 18(1), 220-225.

20. Yusufovich, A. A. (2022). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(4), 136-138.

21. Zokirjon o'g'li, M. J. (2022). PROFESSIONALISM AS A GENERALIZED TYPICAL MODEL OF A PROFESSIONAL IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Journal of new century innovations*, 11(1), 186-189.